

# “RESEARCH-BASED TRANSFORMATION OF TEACHER EDUCATION: TRADITION AS A BASIS FOR INNOVATION” International Conference on Teacher Education

## ZAMONAVIY O‘QITUVCHILAR TA’LIMIDA ETNIK VA MADANIY OMILLAR: MINTAQAVIY, MILLIY VA XALQARO TAJRIBA

**Abduxalilova Gulbahor Karabayevna,**  
O‘zbekiston davlat jahon tillar universiteti  
2-chet tili kafedrası katta o‘qituvchisi  
[abdukhaliyovagulbahor@gmail.com](mailto:abdukhaliyovagulbahor@gmail.com)

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada oliy ta’limda turizm, etnik, tarixiy hamda zamonaviy bilimlar chambarscharsligi hamda talabalarning madaniy tafakkurini rivojlantirishning metodik shart-sharoitlarini nazariy jihatlarini yoritib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Oliy ta’lim, fan, ishlanmalar, innovatsiya, innovatsion rivojlanish, ijtimoiy taraqqiyot, texnika, pedagoik texnologiya.*

***Аннотация:** В данной статье описаны теоретические аспекты интеграции туристических, этнических, исторических и современных знаний и методические условия развития культурного мышления студентов в высшей школе.*

***Ключевые слова:** Высшее образование, наука, разработка, инновация, инновационное развитие, социальное развитие, техника, педагогические технологии.*

***Annotation:** This article describes the theoretical aspects of the integration of tourism, ethnic, historical and modern knowledge and the methodological conditions for the development of students' cultural thinking in higher education.*

***Keywords:** Higher education, science, processing, innovation, innovative development, social development, technics, pedagogical technologies.*

**KIRISH.** Bugungi kunda jamiyatimizda yoshlar va bilim olish istagida bo‘lganlar uchun davlatimiz tomonidan ko‘plab shart-sharoitlar yaratilmoqda. Shuningdek, professor o‘qituvchilar ham bundan mustasno emas. Mamlakatimizda mustaqilligining kirish yillaridayoq ta’lim sohasiga davlat darajasida e’tibor hamda imkoniyatlar qaratilib, kelinmoqda. Hozirgi kunda ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalar va interfaol usullarni qo‘llashga qiziqish tobora keng tus olmoqda. Bunday usullarni qo‘llash ta’lim samaradorligi va ta’sirchanligini oshiradi, o‘quvchini bilim olishiga va teran fikrlashiga o‘qituvchi tomonidan katta yordam bo‘ladi.

Talabalarda darsdagi bilim ko‘nikmalarini oshirish, rivojlantirish hamda o‘quv uslubini oshirish juda muhim hisoblanadi, bular:

- Talabalarni dunyoviy va diniy bilim malakalar olishni yanada oshirish va hamma bilimni oz o‘rnida o‘rganish ;

# “RESEARCH-BASED TRANSFORMATION OF TEACHER EDUCATION: TRADITION AS A BASIS FOR INNOVATION”

## International Conference on Teacher Education

- Qimmatli hamda ma'naviy qarorlar qabul qilishni holisona o'rganish va har bir katta-kichik muommolarni o'z o'rnida bilim bilan yechim topish;
- Mustaqil fikr yuritishda samarali bo'lib, ular tez orada o'zlarining qarorlarini qabul qilishga imkon yaratish;
- Ijodiy yutuqlarni oshirish;
- Talabalarning tengdoshlari bilan munosabatlarini rivojlantirishga yordam berish kabilardir.

Ma'lumki, darsning turli xil o'yinlar asosida o'tilishi o'quvchilarning imkoniyatlarini namoyish etish, diqqatni jamlash, bilim va ko'nikmalarini oshirish va kuchli bo'lishlarini ta'minlaydi.

O'yin texnologiyasidan foydalanishning asosini o'quvchini faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi. Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda barqaror o'rnini topish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. Har qanday o'yin zamirida umumiy qabul qilingan ta'lim prinsiplari, taktikasi yotishi kerak. O'quv o'yinlariga o'quv predmetlari asos qilib olinishi kerak. O'yinlar jarayonida o'quvchi oddiy darsga qaraganda bu mashg'ulotga qiziqibroq yondashadi va bemalol faoliyat ko'rsatadi. Ta'kidlash lozimki, o'yin eng avallo, o'qitishning bir usulidir. O'quvchilar o'yinli darslarga qiziqib qatnashadilar, g'alaba qozonishga intiladilar, o'qituvchi ular orqali o'quvchiga ta'lim-tarbiya ham beradi. O'quvchi inglizcha o'yin o'ynab, gapira olarkanman, tinglab tushuna olarkanman, yoza olarkanman, deb ishonadi, qiziqadi [2]. Biz bilamizki, hozirgi ta'lim jarayonida o'quvchi sub'ekt bo'lishi lozim. Bunda ko'proq interfaol metodlarga e'tiborni qaratish ta'lim samaradorligini oshiradi. Ingliz tili darslariga qo'yilgan eng muhim talablardan biri talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. Bugungi kunda ingliz tili o'qituvchilari Amerika Qo'shma Statlari, Angliya pedagoglari tajribasiga tayangan holda quyidagi innovatsion metodlardan foydalanib kelishmoqda:

– “Muammoli vaziyat yechimi” (Creative Problem Solving) bu usulni qo'llash uchun hikoyaning boshlanishi o'qib beriladi qanday yakun topishi o'quvchilar, talabalar hukmiga havola qilinadi;

– “Quvnoq topishmoqlar” (Merry Riddles) o'quvchilarga topishmoqlar o'rgatish Ingliz tilini o'rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarni o'rganadilar va o'ylab topishmoq javobini topadilar;

– “Tezkor javob” (Quick answers) o'tilgan dars samaradorligini oshirishda yordam beradi;



# “RESEARCH-BASED TRANSFORMATION OF TEACHER EDUCATION: TRADITION AS A BASIS FOR INNOVATION”

## International Conference on Teacher Education

– “Chigil yozdi” (“Warm-up exercises”) o’quvchilarni darsga qiziqtirish uchun sinfda har xil o’yinlardan foydalanish [3];

– “Pantomima” (pantomime) bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo’lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarilib, talabalar charchagan paytda foydalanilsa bo’ladi;

– “Hikoya zanjiri” (a chain story) usuli o’quvchilarning og’zaki nutqini o’stirishda yordam beradi;

– “Rolli o’yinlar” (Acting characters) bu usul darsning barcha tiplarida qo’llanilishi mumkin. Hunarga o’rgatish uchun “Interpreter”, “Translator”, “Writer”, “Poet” kabi kasbdagi kishilar darsda ishtirok etishib o’quvchilar bilan suhbatlashishlari mumkin;

– “Allomalar yig’ini” (Thinkers meeting) U.Shekspir, A.Navoiy, R.Burns kabi shoirlar va yozuvchilarni “taklif qilish” mumkin. Bunday paytda ular aytib ketgan hikmatli so’zlardan darsda foydalanish yoshlarni komil inson bo’lib tarbiyalanishiga yordam beradi;

– “Rasmlar so’zlaganda” (When pictures speak) usuli ancha qulay bo’lib, ingliz tilini o’rgatishda, talaba, o’quvchilarning og’zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga oid rasmlardan foydalanish lozim.

Hozirgi zamon o’qituvchisining asosiy fazilatlaridan biri - o’z kasbiga sadoqatliligi, o’z kasbini sevishi uni boshqa kasb egalaridan ajratib turadi, chunki maktabda ta’lim tarbiya ishining yuqori saviyada olib borilishi faqat o’qituvchilarga bog’liq. O’qituvchi shaxsiga qo’yiladigan muhim talablardan biri shuki, u o’zi o’qitayotgan predmetlarni chuqur bilishi, uning metodikasini o’zlashtirib olgan bo’lishi zarur. Predmetni va uning nazariyasini chuqur bilishi, uni qiziqarli qilib o’quvchilarga yetkaza olishi, bolalarning shu predmetga bo’lgan qiziqishini oshiradi. O’qituvchi o’z kasbini qanchalik ustasi bo’lsa, uni obro’si ham shunchalik yuqori bo’ladi. O’quvchilar o’qituvching o’z bilimlarini bolalarga yetkaza olish imkoniyatlarini qadrlabgina qolmay, balki, uning fidoyiligini ham taqdirlashadi.

O’qituvchining yuksak madaniyati, bilim doirasi, uning ta’lim – tarbiya ishlarining muvaffaqiyatli kechishiga yordam beradi. O’qituvchi kasbiga xos bo’lgan muhim talablardan yana biri bolalarni sevish, ularning hayoti bilan qiziqish, har bir shaxsni hurmat qilishdan iboratdir. Bolani sevgan, butun kuch va bilimini bolalarning kelajagi, ularni Vatanga sodiq fuqaro qilib tarbiyalashga safarbar qila oladigan insongina haqiqiy o’qituvchi bo’la oladi. Bolaga befarq, uning kelajagi bilan qiziqmaydigan, o’qituvchilik kasbiga loqayd inson haqiqiy o’qituvchi bo’la olmaydi.

**Xulosa:**

# **“RESEARCH-BASED TRANSFORMATION OF TEACHER EDUCATION: TRADITION AS A BASIS FOR INNOVATION”**

## **International Conference on Teacher Education**

Ushbu masala bo'yicha uslubiy adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, o'qitish o'qituvchi va talabalar o'rtasida faol o'zaro bog'liqlik bo'lib, u bir tomonlama bo'lishi mumkin emas, bu o'qituvchiga o'quv jarayoni qanchalik muvaffaqiyatli bo'lishiga bog'liq.

Mahalliy maktabda chet tillarini o'qitish sohasidagi yangilanish jarayonlari o'qituvchilarga fanni o'qitish kurslari, o'quv qo'llanmalari va boshqa o'quv qo'llanmalarini qurish modelini mustaqil tanlash huquqi va imkoniyati berilgan vaziyatni yaratmoqda. Bunday vaziyatda aynan o'qituvchi turli metodik tizimlardan chet tillarini o'qitishning pedagogik voqeliklari va o'ziga xos shartlariga ko'proq mos keladiganini tanlashi kerak.

Ko'rinib turibdiki, har bir o'qituvchi grammatikani o'qitishda ish uslublari va uslublarni tanlashda shaxsiy tajribasiga muvofiq ravishda rahbarlik qiladi. Ammo, eksperimental va amaliy ish natijalariga asoslanib, kommunikativ, induktiv, deduktiv usullar doirasida turli xil texnikalardan foydalanish ijobiy natija beradi va shubhasiz grammatikani o'qitish samaradorligini oshirishga yordam beradi, deb ta'kidlashimiz mumkin.

Ta'lim tizimi o'z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, yetuk shaxsni tarbiyalashni vazifa qilib qo'yar ekan, kelgusida biz bo'lajak o'qituvchilar innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yo'llarini yanada mukammalroq ishlab chiqshimiz bilan o'z xissamizni qo'shishimiz mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'. J. Yo'ldoshev Umumiy Pedagogika. Toshkent-2017
2. H.T.Omonov, N.X. Xo'jayev, S.A.Madyorova, E.U.Eshchonov. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat". Iqtisodiyot-Moliya" Toshkent-2009
3. Shomirzayev M. X. Developing educational technologies in school technology education // Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – T. 10. – №. 5. – C.
4. Bekmuratova U. B. “Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish” mavzusida referat. Toshkent — 2012 yil
5. Отабоева, М. Р. Чет тилини о'қитишда замонавий инновацион технологияларидан фойдаланиш ва унинг самарadorлиги / М. Р. Отабоева. — Текст: непосредственный, электронный // Молодой ученый. — 2017. — № 4.2 (138.2). — С. 36–37. — URL: <https://moluch.ru/archive/138/39058/> (дата обращения: 27.04.2020)
6. O'.Hoshimov, I. Yoqubov. “INGLIZ TILI O'QITISH METODIKASI” (o'quv qo'llanma) Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2003.